

“#SonetliYoz reklama aksiyasi to‘g‘risida”

NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

Aksiyaning nomi: “#SonetliYoz” bundan keyin matn bo‘yicha “Aksiya”.

1. Aksiya rag‘batlantiruvchi lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish Ishtirokchilar tomonidan to‘lov to‘lash bilan bog‘liq emas va tavakkalchilikka asoslanmagan Ushbu Aksiyaga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 983, 984-moddalarida belgilangan normalar tatbiq etilmaydi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 15-noyabrdagi 396-son qarori bilan tasdiqlangan Lotereya o‘yinlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda nazarda tutilgan tartib tatbiq etilmaydi.

2. Aksiyani o‘tkazish jarayoni Aksiya ishtirokchilari tomonidan to‘lov amalga oshirilishi bilan bog‘liq emas va Aksiyaning sovrin jamg‘armasi faqat “Roodell” MCHJ (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

3. Aksiya ishtirokchisi – 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, Kia Sonet avtomobiliga ega bo‘lgan, ushbu Tartibda ko‘rsatilgan zarur harakatlarni amalga oshirgan, muomalaga layoqatli jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi).

4. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas va ixtiyoriy xarakterga ega.

5. Aksiya tashkilotchisi: “Roodell” MCHJ. Tashkilotchining manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko‘chasi, 7-uy; STIR: 207 151 159.

6. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi

7. Aksiya o‘tkazilish muddati: 2026-yil 1-iyuldan 31-avgustgacha.

8. Sovrinlar o‘ynaladigan sanalar: 2026-yil 10, 17, 24, 31-iyun, 7, 14, 21, 28-avgust va 4-sentabr.

9. Sovrinlarni tantanali ravishda topshirish sanasi: har bir yutuqli o‘yindan keyin 3-15 ish kuni ichida Kia rasmiy dilerlik markazida..

10. Tashkilotchi ushbu tartib shartlarida ko‘rsatilgan usulda Aksiya shartlariga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

2. AKSIYA SOVRIN JAMG‘ARMASI

11. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi: 27 dona Kia Sonet brendli o‘yinchoq mashinalari va 27 dona Kia brendli to‘plar.

12. Tashkilotchining sovrinlarni berish bo‘yicha javobgarligi faqat yuqorida ko‘rsatilgan sovrinlar soni bilan cheklangan.

13. Tashkilotchi Sovrinlar ro‘yxatini o‘zgartirish/kengaytirish huquqiga ega.

3. AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

14. Aksiya ishtirokchisiga aylanish uchun quyidagilar zarur:

– Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi shaxsiy profilida Kia Sonet avtomobili bilan original post (fotosurat yoki videorolik) joylashtirish. Joylashtiriladigan material yozgi safarlar, sayohatlar, dam olish, faol turmush tarzi yoki Kia Sonet avtomobilidan foydalanishni namoyish etuvchi boshqa syujetlar mavzusiga mos kelishi kerak. Kontent ishtirokchi tomonidan mustaqil ravishda yaratilishi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, Instagram ijtimoiy tarmog‘i qoidalarini buzmasligi, shuningdek, haqoratli, kamsituvchi, ekstremistik, pornografik xarakterdagi materiallarni, zo‘ravonlik sahnalari, behayo so‘zlar, uchinchi shaxslarning tovarlari va xizmatlarini reklama qilishni yoki umumiy qabul qilingan axloq va ma’naviyat normalariga zid bo‘lgan boshqa materiallarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

– Postda brendning rasmiy akkaunti – @Kia__Uzbekistan’ni belgilash

– Post tavsifiga #SonetliYoz’ni qo‘shish.

– Ishtirokchining Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi profili tanlov posti e‘lon qilingan paytdan boshlab ochiq (hammaga ochiq) bo‘lishi va Aksiya yakunlangunga, g‘oliblar aniqlangunga va barcha sovrinlar topshirilgunga qadar ochiq saqlanishi kerak. Ko‘rsatilgan muddat davomida Tashkilotchi ishtirokchining profili, e‘lon qilingan tanlov posti, brendning rasmiy akkaunti belgisi va #SonetliYoz xeshtegini moneliqsiz ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Agar profil yopilsa yoki Aksiya shartlarining bajarilishini tekshirish tugaguniga qadar e‘lon qilish imkonsiz bo‘lib qolsa, Tashkilotchi bunday ishtirokchini sovrinni olishga da’vogarlar safidan chiqarishga haqli.

– Aksiya ishtirokchisi 18 yoshdan oshgan muomalaga layoqatli shaxs bo‘lishi kerak.

15. Aksiya ishtirokchilari tomonidan barcha shartlarning bajarilishini nazorat qilish “Roodell” MCHJ bosh direktorining buyrug‘iga muvofiq xodimlar orasidan tashkil etiladigan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

16. Aksiya bo‘yicha sovrinlar o‘ynaladigan yutuqli o‘yinni o‘tkazish vaqti va joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ushbu Tartibga muvofiq e‘lon qilinadi.

17. Sovrinlar o‘ynaladigan yutuqli o‘yinlar Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi @Kia__uzbekistan rasmiy sahifasida o‘tkaziladi.

18. Tashkilotchi Aksiya shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi, bunda ushbu Nizom Ishtirokchilar e‘tiboriga qanday tarzda yetkazilsa, shu tarzda o‘zgarishlarni majburiy ravishda e‘lon qiladi.

19. Bitta post Ishtirokchiga ishtirokchilar ro‘yxatini shakllantirishning tegishli davri doirasida yutuqli o‘yinda ishtirok etish huquqini taqdim etadi.

Agar bitta jismoniy shaxs Aksiya davrida #SonetliYoz tanlovi talablariga javob beradigan bittadan ortiq post joylashtirsa, bunday shaxs har bir post uchun alohida ro‘yxatdan o‘tish raqamini oladi.

20. Sovrinlar g‘oliblari ushbu Nizom shartlariga mos keladigan barcha ro‘yxatdan o‘tgan Aksiya ishtirokchilari orasidan tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi.

21. Pul ekvivalentidagi sovrinlar g‘olibning talabiga ko‘ra to‘lanmaydi va boshqa mol-mulkka almashtirilmaydi.

22. Har bir Ishtirokchi mustaqil ravishda, o‘zi uchun qulay bo‘lgan usulda Aksiya shartlari, Aksiya ishtirokchilari ro‘yxati, sovrinlar o‘yini o‘tkaziladigan joy va vaqt haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadi.

4. AKSIYA G‘OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI

23. Sovrinlar o‘ynaladigan yutuqli o‘yin faqat aksiya muddati davomida ushbu Nizomda ko‘rsatilgan shartlarni bajargan Ishtirokchilar o‘rtasida o‘tkaziladi.

24. Aksiyada ishtirok etish holati barcha ishtirokchilarning ushbu shartlarga roziligini, shuningdek ularning ismlari, familiyalari, fotosuratlar Tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilishda haq to‘lovizsiz foydalanilishi mumkinligini anglatadi.

25. Aksiya g‘oliblari Kia kompaniyasining O‘zbekistondagi rasmiy distribyutori tomonidan o‘tkaziladigan bevosita efirlar doirasida aniqlanadi. G‘oliblarni tanlash tegishli ro‘yxatlarga kiritilgan Ishtirokchilar orasidan tasodifiy sonlar generatori yordamida amalga oshiriladi. Tanlov jarayoni real vaqt rejimida o‘tkaziladi, tomoshabinlar uchun ochiq va shaffof bo‘lib, xolislikni ta‘minlaydi va o‘yin natijalariga aralashish imkoniyatini istisno qiladi.

5. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI

26. G‘oliblar yutuq to‘g‘risida shaxsan o‘yin o‘tkazilayotgan vaqtda xabardor qilinadi.

27. G‘oliblarni taqdirlash g‘olib aniqlangan paytdan boshlab 3 – 15 kun ichida g‘oliblar uchun eng

qulay bo'lgan dilerlik markazlarida o'tkaziladi.

28. Sovrinni olishda g'olib post e'lon qilingan akkauntga kirish huquqiga ega ekanligini taqdim etishi kerak.

29. G'olib bo'lgan ishtirokchi sovrinni olishda uning olinganligini tasdiqlovchi hujjatga o'z qo'li bilan qayd qiladi: to'liq F.I.O.ni ko'rsatadi va o'z imzosini qo'yadi, shuningdek ko'rsatilgan hujjatning boshqa barcha zarur ustunlarini to'ldiradi. Sovrinni olgan paytdan boshlab, g'olib bo'lgan ishtirokchi ushbu sovrinning tasodifan nobud bo'lishi yoki shikastlanishi bo'yicha barcha xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

6. YAKUNIY QOIDALAR

30. Sovrinlar qiymatining pul ekvivalenti to'lovi amalga oshirilmaydi.

31. Sovrinni olish bilan bog'liq barcha ma'lum va noma'lum bo'lgan xarajatlar Aksiya g'olibi tomonidan qoplanadi.

32. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilarning ushbu Tartib bilan tanishishi va unga to'liq roziligini anglatadi.

33. Aksiya g'olibi deb e'tirof etilgan Ishtirokchilar avtomat ravishda qo'shimcha roziliksiz Tashkilotchiga va/yoki uning vakolatli vakiliga uning ismi, familiyasi, otasining ismi, fotosuratini e'lon qilish huquqini, shuningdek, reklama maqsadlarida, shu jumladan radio va televideniye uchun, xuddi boshqa axborot tarqatish vositalari kabi, Aksiyada ishtirok etish to'g'risida reklama intervyusini olish huquqini, har qanday reklama materiallarini tayyorlash uchun ulardan foydalanish muddati, tarqatish hududi cheklanmagan holda va qo'shimcha haq to'lamasdan foto va videotasvirga olish huquqini beradilar.

34. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan, ushbu Tartibda nazarda tutilgan va Aksiya Sovrini olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi va o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar emas.

35. Aksiya g'olibi bo'lgan Aksiya Ishtirokchilarining Aksiya Tartibi bilan o'z vaqtida tanishmaganligi Tashkilotchiga tegishli Sovrinni olish uchun zarur hujjatlarni taqdim etish talablari va muddatlarini buzish uchun uzrli sabab hisoblanmaydi.

36. Tashkilotchi ushbu Tartib qoidalarini buzgan, shu jumladan Aksiya Sovrinlarini berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini buzgan G'oliblarga, shuningdek bunday ma'lumotlarni taqdim etmagan G'oliblarga Aksiya Sovrinlarini berishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

37. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasidagi muzokaralar orqali hal etiladi. Tinch yo'l bilan murosaga kelish mumkin bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudda ko'rib chiqiladi.

38. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Aksiya Tashkilotchisi va Ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

39. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga biron-bir tarzda zid bo'lgan taqdirda qonun hujjatlarining ushbu Nizomga nisbatan ustuvor bo'lgan normalari qo'llaniladi.

40. Nizom buyruq bilan tasdiqlanadi va amalga tatbiq etiladi.